

UDC: 342(045)(575.1)

AXBOROT MAKONIDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Madiyev Faxriddin Hoshim o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Konstitutsiyaviy huquq kafedrası katta o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-3034-7334
e-mail: fmadiev92@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot makonida shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslari tahlil qilingan. Hozirgi rivojlangan axborot texnologiyalari shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning huquqiy, siyosiy, tashkiliy hamda iqtisoiy kafolatlarini takomillashtirish, shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning zamonaviy konseptual va metodologik asoslarini rivojlantirish, bunday huquqlarni ta'minlash prinsiplarining yaxlit bir mexanizmini yo'lga qo'yish masalalariga tanqidiy-tahliliy baho berish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Muallifning fikricha, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi va uning tarkibiy elementlari bir normada qat'iy belgilab berilishi lozim. Aks holda, joriy innovatsion rivojlanish muhitida shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasining dolzarb ahamiyati hamda o'rni sezilarli darajada bo'lmay qolishi mumkin. Chunki shaxsiy hayot tushunchasining qonunchilikda shakllanishi hamda uni ta'minlashni huquqiy tartibga solish mexanizm va kafolatlarining belgilanishi bu boradagi ishlar, ayniqsa, "inson qadri" uchun olib borilayotgan islohotlarning mazmuniy davomi bo'lishiga xizmat qiladi. Maqolada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi hamda huquqshunos olimlarning davlat boshqaruvi shakliga oid yondashuvlarini tahlil qilgan holda raqamlashtirish sharoitida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi va konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini kompleks tahlil qilish, shaxsiy daxlsizlikka oid O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, shaxsiy hayot, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy ma'lumotlar, alohida toifadagi shaxsiy hayotga oid ma'lumotlar, sog'liqqa oid ma'lumotlar, shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlar.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ВЛИЯНИЯ ПУБЛИЧНОЙ ИНФОРМАЦИИ НА РАЗВИТИЕ КОНСТИТУЦИОННОГО ПРАВА

Мадиев Фахриддин Хошим угли,
преподаватель кафедры «Конституционное право»
Ташкентский государственный юридический университет

Аннотация. В данной статье анализируются конституционные основы обеспечения конфиденциальности в информационном пространстве. Современные передовые информационные технологии создают необходимость критической и аналитической оценки вопросов совершенствования правовых, политических, организационных и экономических гарантий неприкосновенности частной жизни, разработки современных концептуальных и методологических основ неприкосновенности частной жизни, установления комплексного механизма принципов обеспечения таких прав. По мнению автора, право на неприкосновенность частной жизни и его составляющие элементы должны быть строго определены в

единой норме. В противном случае понятие конфиденциальности может потерять свою актуальность и существенное место в современной инновационной среде. Потому что формирование понятия частной жизни в законодательстве и установление правовых механизмов регулирования и гарантий ее обеспечения служат содержательным продолжением работы в этом направлении, особенно реформ, проводимых «во имя человеческого достоинства». Анализируя передовой опыт зарубежных стран и подходы ученых-правоведов к форме государственного управления, в статье ставится задача дать комплексный анализ права на неприкосновенность частной жизни и особенностей его конституционно-правового регулирования в условиях цифровизации, а также представить предложения по совершенствованию законодательства Узбекистана о конфиденциальности.

Ключевые слова: оцифровка, личная жизнь, неприкосновенность частной жизни, персональные данные, специальные категории персональных данных, данные о здоровье, персональные идентификационные данные.

THE MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF PUBLIC INFORMATION ON THE DEVELOPMENT OF CONSTITUTIONAL LAW

Madiev Fakhridin Khoshim ugli,

Senior Lecturer, Constitutional Law Department,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the constitutional basis for ensuring privacy in the information space. Current advanced information technologies create the need to critically and analytically assess the issues of improving legal, political, organizational, and economic guarantees of privacy, developing modern conceptual and methodological bases of privacy, and establishing a comprehensive mechanism of the principles for ensuring such rights. According to the author, the right to privacy and its constituent elements should be strictly defined in one norm. Otherwise, the concept of privacy may lose its relevance and place significantly in the current innovative development environment. Because the formation of the concept of private life in the legislation and the establishment of legal regulatory mechanisms and guarantees for its provision serve as a meaningful continuation of the work in this regard, especially the reforms carried out for the sake of "human dignity". Analyzing the advanced experience of foreign countries and the approaches of legal scholars to the form of state administration, the article aims to provide a comprehensive analysis of the right to privacy in the context of digitalization and the specific features of its constitutional and legal regulation and to present proposals for improving the legislation of Uzbekistan on privacy.

Keywords: digitization, privacy, security, personal data, special categories of personal data, health data, identity data.

Kirish

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlashning huquqiy asoslarini tadqiq etish, uning konstitutsiyaviy kafolatlanganligini tahlil etish birlamchi vazifadir. Mohiyatan, huquq normasi konstitutsiyaviy asoslar yordamida yuqori darajadagi maqomga erishadi. Shu nuqtayi nazardan, shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash masalasining ham konstitutsiyaviy jihatdan asosligini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo mazkur tadqiqot jarayoni shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida shaxsiy hayot daxlsizligi masalasi to'laqonli tadqiq etilmagan.

M. Mirakulovning qayd etishicha, mustaqillikning dastlabki o'n yilligida davlat-huquqiy yo'nalishida amalga oshirilgan dissertatsiyalar tahlili shuni ko'rsatmoqdiki, mavzular asosan davlat organlari faoliyatiga bag'ishlanib, huquq, inson huquqlari-

ga oid mavzular biroz e'tibordan chetda qolgan [1]. Shuning uchun ham bu borada huquqshunos olimlar, tadqiqotchilar oldida inson huquqlari, xossatan shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslari kabi masalalarni o'rganish vazifasi turibdi.

Material va metodlar

Mazkur masalani tadqiq etishni uch turdagi asoslar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchidan, mahalliy huquqshunos olimlarning bu boradagi ilmiy qarashlari hamda yondashuvlarini tahlil etish; ikkinchidan, xorijiy mutaxassislarining fikr-mulohazalarini talqin etish; uchinchidan, ilg'or xorijiy tajribani qiyosiy-huquqiy tadqiq etish orqali muayyan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi belgilab olindi.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarga javob topish maqsadida mazkur tadqiqot ishida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Avvalambor, mahalliy huquqshunos olimlarning shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslari bo'yicha ilmiy qarashlari hamda yondashuvlarini tahlil etamiz.

S. Soliyev va Sh. Nazarovlar "konstitutsiyada kafolatlangan daxlsizlik huquqini ta'minlash" [2], O. Mo'minov shaxsiy hayotga oid ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi shaxslarga "ruhiy-ma'naviy azob yetkazib qo'yishi" [3], B. Izzatullayev axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda hududlarning raqamli rivojlanishi holatlari "diagnostikasi"ni o'tkazish, muammoli masalalarni aniqlash, lozim topilsa, ularni hal qilish yo'llarini topish maqsadida maxsus baholash metodikalarini ishlab chiqish lozimligi [4], A. Shermuhammedova ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishida bir qator salbiy holatlar ham yuzaga kelishi, xususan, ijtimoiy tarmoqlar-

da kiberqaramlikning rivojlanishi natijasida asta-sekin yoshlar ijtimoiylashuvida salbiy xususiyatlar shakllana borishi, virtual hayot haqiqiy qadriyatlarini chetda qoldirib, internet madaniyatining ta'sirini kuchaytirishini tadqiq etgan [5].

Yuqoridagi fikrlar bilan ilmiy bahsga kiritilgan bo'lsak, quyidagilarni qayd etish joiz. Avvalo, S. Soliyev, Sh. Nazarov hamda O. Mo'minovlarning fikr-mulohazalari hozirgi davr ruhiyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga to'laqonli javob bermaydi. A. Shermuhammedovanning fikri esa bir tomonlamaligi bilan xususiyatlanib, bu masala yuzasidan ijobiy jihatlarni ham qayd etish mumkin, deb hisoblaymiz. B. Izzatullayevning fikri axborot texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalariga aloqador bo'lsa-da, shaxsiy hayot daxlsizligi hamda axborot texnologiyalarining o'zaro integratsiyasini inobatga olmaganligi bilan farqlanadi. Shuningdek, so'nggi kunlarda jahon amaliyotida axborot makoni sun'iy intellekt tizimlari tufayli boyib borayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, olimning qarashlari bir tomonlama ekanligini sezish qiyin emas.

Shaxsiy daxlsizlikni ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslarini tahlil etishda xorijiy olimlarning ilmiy ishlariga murojaat qilib, ular qatorida N. Kolvin, K. Niyst, D. Pozen va J. Kohenlarning yondashuvlarini muhokama etish mumkin.

Jumladan, N. Kolvin shaxsiy daxlsizlikni (privacy) qonunchilik vositasida ta'minlashda milliy xavfsizlik xizmatining faoliyatini ham inobatga olish lozimligi [6], K. Niyst shaxsiy daxlsizlik (privacy) inson huquqlarining zaruriy komponenti ekanligi [7], D. Pozen esa fikrlash erkinligi, o'z tanasi ustidan nazorat, turar joy daxlsizligi, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi, kuzatuvlardan xoli bo'lish huquqi, shaxsiy obro'sini himoya qilish huquqi, tergov-qidiruv harakatlaridan himoyalani huquqi qonunlarda aks etib, shaxsiy daxlsizlikning asosini tashkil etishi

[8], D. Bambauer shaxsiy daxlsizlik xavfsizlik termini bilan birgalikda qo'llanishi [9], J. Kohen shaxsiy daxlsizlik va uning zamonadan "ortda qolayotgan qadriyatlari" mag'lub bo'layotganini qayd etib o'tgan [10].

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning yondashuvlari yuzasidan ilmiy bahsga kirishadigan bo'lsak, N. Kolvin ta'kidlaganidek, shaxsiy daxlsizlikka oid qonunchilikni ishlab chiqishda nafaqat milliy xavfsizlik xizmati, balki barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning institutsional kafolatlarini ta'minlash muhim hisoblanadi.

K. Niystning fikrini albatta qo'llab-quvvatlash mumkin. D. Pozenning yondashuvi bo'yicha shaxsiy daxlsizlik huquqi o'z ichiga keng doiradagi masalalarni qamrab olishini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Zero, olim tomonidan qayd etilgan kuzatuvlardan xoli bo'lish huquqi, shaxsiy obro'sini himoya qilish huquqi, o'z tanasini nazorat qilish huquqi kabilar milliy qonunchiligimizda to'laqonli aks ettirilmaganligini qayd etish lozim. J. Kohen mulohazasi huquqqa axloqiy yondashuvning ifodasi bo'lib, uning shaxsiy daxlsizlik huquqini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda ilg'or xorijiy tajribani o'rganish orqali asosli xulosaga kelish, ilmiy va amaliy asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun chet davlatlar qonunchiligini muhokama qilamiz.

Xususan, Italiya Konstitutsiyasining 2-moddasi 1-qismida shaxsiy daxlsizlik huquqi aks ettirilgan bo'lib [11], unga ko'ra davlat shaxsning daxlsiz huquqlarini tan oladi va kafolatlaydi.

Kanadaning 1967-yilgi konstitutsiyaviy qonunida shaxsiy daxlsizlik huquqi haqida norma mavjud bo'lmasa-da, 1982-yilgi Konstitutsiyaviy qonunining 7-moddasida [12] har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi qat'iy belgilangan.

Ispaniya Konstitutsiyasining 18-moddasi 1-qismida mustahkamlanishicha, shaxsni

hurmat qilish lozim bo'lib, shaxsiy va oilaviy daxlsizlik huquqi kafolatlanadi [13].

Portugaliya Konstitutsiyasining 26-moddasida shaxsiy daxlsizlik huquqi mustahkamlangan [14]. Turkiya Konstitutsiyasining 20-moddasida esa shaxsiy daxlsizlik huquqi bilan birgalikda oilaviy (shaxsiy) hayotning daxlsizligi kafolatlanishi belgilab berilgan [15].

Daniya Konstitutsiyasining 72-moddasiga ko'ra, shaxsiy daxlsizlik huquqining tarkibiy qismi sifatida yozishmalarning daxlsizligi, xatlar va boshqa hujjatlarni, agar qonunda alohida istisnolar nazarda tutilgan bo'lmasa, tintuv qilish, olib qo'yish va ko'zdan kechirish, shuningdek, pochta, telegraf va telefon aloqalari sirini buzish faqat sud qarori asosida amalga oshirilishi belgilangan [16].

Latviya Konstitutsiyasining 96-moddasida har bir inson shaxsiy hayot, turar joy, yozishmalar daxlsizligi huquqiga egaligi qat'iy belgilab berilgan [17]. Janubiy Koreya Konstitutsiyasining 18-moddasida hech bir fuqaro yozishmalarining maxfiyligi buzilmasligi [18], Germaniya Konstitutsiyasi 10-moddasining 1-qismida yozishmalar, pochta va telekommunikatsiyalarning maxfiyligi daxlsizligi qonun bilan kafolatlangan [19]. Finlandiya Konstitutsiyasining 10-moddasida har bir shaxsning shaxsiy hayoti, sha'ni va turar joyining muqaddasligi kafolatlanishi belgilangan [20].

Ba'zi bir mamlakatlarning Konstitutsiyasida shaxs daxlsizligi va uning shaxsiy ma'lumotlarining xavfsizligini kafolatlash haqida ma'lum bir modda bo'lishiga qaramay ichki qonunchiligi orqali ushbu huquqning daxlsizligi kafolatlab qo'yilgan. Bunga yaqqol misol: Yaponiyaning APPI (The Act on the Protection of Personal Information) qonuni irq, e'tiqod, din, jismoniy yoki ruhiy nogironlar, tibbiy yozuvlar, tibbiy va farmakologik davolanish, hibsga olish yoki jinoiy ish yuritish kabi shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [21].

Shaxsiy hayot daxlsizligining konstitutsiyaviy asoslarini tahlil etish orqali ularning

normativ-huquqiy hujjatlarda ifodalanishi mezon bo'yicha quyidagi tasniflashni taklif etish mumkin:

1) shaxsiy hayot daxlsizligi konstitutsiyaviy asoslar bilan mustahkamlangan (Ispaniya, Portugaliya, Daniya, Latviya, Germaniya);

2) shaxsiy hayot daxlsizligi qonunlarda mustahkamlangan (Yaponiya);

3) shaxsiy hayot daxlsizligi konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkamlangan (O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, Koreya);

4) shaxsiy hayot daxlsizligi konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanmagan (nodemokratik davlatlar – Shimoliy Koreya, Afg'oniston).

Shaxsiy hayot daxlsizligi xalqaro hujjatlarda ham alohida mustahkamlangan bo'lib, misol tariqasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligi, uning yozishmalaridagi sirlar yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emasligi ta'kidlanadi. Shuningdek, har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga egaligi belgilangan [22].

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasi 1-qismida hech kimning shaxsiy hayoti, oilasi, uy-joy daxlsizligi yoki yozishmalariga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof ravishda aralashish, sha'ni va obro'siga noqonuniy tajovuz qilish mumkin emasligi qat'iy belgilangan [23].

Shu bilan birga, 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 16-moddasida "... bolaning shaxsiy hayoti, oilasi, uy-joyi yoki yozishmalariga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof ravishda aralashish, sha'ni va obro'siga noqonuniy tajovuz qilish mumkin emasligi" [24], "Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini himoya qilish to'g'risida"gi xalqaro konvensiyaning 14-moddasida "hech bir mehnat migranti yoki uning oila a'zosi o'zboshimchalik yoki qonunga xilof ravishda jazolanishi mumkin

emasligi, uning shaxsiy hayoti, oilasi, uyi, yozishmalari yoki boshqa aloqalariga aralashish yoki uning sha'ni va obro'siga noqonuniy hujumlardan himoyalaniish huquqiga egaligi" [25] xalqaro hujjatlar bilan kafolatlangan.

1964-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan tashkil etilgan UNCTAD tashkilotiga a'zo bo'lgan 194 ta davlatdan 137 tasida ma'lumotlar va shaxsiy daxlsizlikni himoya qilish bo'yicha qonunlar ishlab chiqilgan [26].

Ular orasida O'zbekiston Respublikasi ham bo'lib, ushbu dolzarb muammoni hal etishga qaratilgan qonun qolgan a'zo davlatlarga qaraganda kechroq (2019-yil 2-iyulda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son qonun bilan) kafolatlangan.

Yuqorida qayd etilgan xalqaro darajadagi hujjatlardan shuni xulosa qilish mumkinki, shaxsiy hayot daxlsizligi quyidagi elementlardan iborat:

1) shaxsiy hayotga oid masalalar va shaxsiy axborotlar;

2) oilaviy hayot masalalari va oilaviy axborotlar;

3) uy-joy daxlsizligi;

4) yozishma va boshqa aloqalarning maxfiyligi hamda sir saqlanishi;

5) nomus va sha'niga oid masala hamda ma'lumotlar.

Fikrimizcha, xalqaro hujjatlardagi shaxsiy hayotga oid tarkibiy elementlar o'rtasida aksariyat holatda o'zaro takrorlash hamda mohiyatan bir-birining mazmunini to'ldiruvchi elementlar ham mavjudligiga diqqatni qaratish zarur. Holbuki, shaxsiy hayotga oid masalalar, o'z navbatida, oilaviy hayot, nomus va sha'nga oid ma'lumotlarni ham qamrab olsa-da, ularni alohida keltirish, ta'kidlash o'rinlarini kuzatish mumkin. Shu sababli ularning yaxlit holda shaxsiy hayotga oid ma'lumotlar sifatida maxsus tasnifini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiy asoslarining tahlili bo'yicha min-

taqaviy darajadagi xalqaro hujjatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, avvalo, Yevropa konvensiyasi diqqat-markazimizda bo'ladi.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 8-moddasida har kim o'z shaxsiy va oilasining hayoti, uyi va yozishmalar daxlsizligi huquqiga egaligi ta'kidlangan [27].

Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasining 11-moddasida hech kim boshqa shaxslarning shaxsiy hayoti, oilasi, uyiga o'zboshimchalik yoki suiiste'mollik bilan aralashishi, uning yozishmalari yoki sha'ni, yoki obro'siga noqonuniy hujum qilishi mumkin emasligi [28] qayd etilgan.

Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi Yevropa reglamentida esa shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashda "Ma'lumotlar nazoratchisi" (Data controller) [29] degan tushuncha bo'lib, mazkur subyekt shaxsiy hayot daxlsizligiga oid ma'lumotlarni nazorat qiluvchi davlat organi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda qiyosiy-huquqiy tahlilni nihoyasiga yetkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsiy hayot daxlsizligi aks ettirilishiga e'tibor qarab o'tsak. Unda "shaxsiy daxlsizlik huquqi" [30] mustahkamlanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili

Bundan tashqari, shaxsiy daxlsizlik huquqining boshqa tarkibiy birliklari Konstitutsiyamizning turli moddalarida ketma-ket keltirib o'tiladi.

Jumladan:

1) sha'n va obro'ga qilingan tajovuzlardan himoyalaniş huquqi (27-modda);

2) shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniş huquqi (27-modda);

3) turar joy daxlsizligi huquqi (27-modda);

4) yozishmalar daxlsizligi huquqi (27-modda);

5) bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi (28-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsiy hayot daxlsizligi o'z ichiga qanday elementlarni olishini belgilab berish ham hozirgi axborot makonida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bosh qomusimizning faqat 25-, 27- va 28-moddalarida shaxsiy hayot daxlsizligining ayrim jihatlari aks ettirilgan xolos.

Fikrimizcha, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi va uning tarkibiy elementlari bir normada qat'iy belgilab berilishi lozim. Aks holda, joriy innovatsion rivojlanish muhitida shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasining dolzarb ahamiyati hamda o'rni sezilarli darajada bo'lmay qolishi mumkin. Chunki shaxsiy hayot tushunchasining qonunchilikda shakllanishi hamda uni ta'minlashning huquqiy tartibga solish mexanizm va kafolatlarining belgilanishi bu boradagi ishlar, ayniqsa, "inson qadri" uchun olib borilayotgan islohotlarning mazmuniy davomi bo'lishiga xizmat qiladi.

Shaxsiy hayot daxlsizligiga oid ma'lumotlarni quyidagicha tasniflashni taklif etish joiz, deb hisoblaymiz:

1) alohida toifadagi shaxsiy hayotga oid ma'lumotlar:

a) sog'liqqa oid ma'lumotlar:

– biometrik ma'lumotlar;

– tibbiy ma'lumotlar;

b) ijtimoiy hayotga oid ma'lumotlar:

– ijtimoiy ma'lumotlar;

– jinoiy ma'lumotlar;

– ta'limga oid ma'lumotlar;

2) shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlar:

a) moliyaviy ma'lumotlar:

– bank ma'lumotlari;

– elektron hamyon va plastik karta ma'lumotlari;

b) onlayn ma'lumotlar:

– joylashuv ma'lumotlari;

– IP manzil ma'lumotlari;

– elektron pochta va ijtimoiy tarmoqqa oid ma'lumotlar;

– onlayn xaridlar va boshqa amallarga oid ma'lumotlar;

d) demografik ma'lumotlar:

- familiya, ism, otasi ismi, taxallus;
- tug'ilish sanasi va boshqa muhim sanalar;
- telefon raqami;
- shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

Yuqoridagi shaxsga doir ma'lumotlar haqidagi fikrlarni o'rganib chiqqan holda shaxsga doir ma'lumotlarga insonning shaxsini tasdiqlovchi har qanday ma'lumotlarni kiritsak bo'ladi. Ushbu ma'lumotlar shaxsning uzluksiz huquqi bo'lib, undan shaxsning ruxsatisiz foydalanish uning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi buzilishiga olib keladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, shaxsga doir ma'lumotlar shaxsiy hayot daxlsizligining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur fikrni asoslantirishni xorijiy olimlarning fikr-mulohazalari hamda ilmiy yondashuvlarini quyida tahlil etish bilan amalga oshirish mumkin.

A.B. Areheart, J.L. Robertslar Genetic Information Non-discrimination Act (GINA) bo'yicha shaxslarning tibbiy ma'lumotlari ham shaxsiy hayot daxlsizligini aks ettirishi kerakligini [30], M.A. Yefremova va P.V. Agapovlar shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi shaxsiy hayot daxlsizligining o'ziga xos elementi bo'lib, ular milliy qonunchilik tizimida belgilanishi lozimligini [31], Y.I. Juk shaxsiy hayot daxlsizligi axborot xavfsizligining konseptual jihatlari bilan uzviy bog'liqlikni keltirib chiqarishi mumkinligini [32], B. Sierzputovskiy 2007-yilgi Estoniyaga qilingan kiberhujumning oqibatlarini va bu voqeadan so'ng jahon hamjamiyatining shaxsiy hayot daxlsizligini kuchaytirish lozimligini qayd etib o'tishadi [33].

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarini o'rganib chiqish asnosida shunga amin bo'ldikki, shaxsiy ma'lumotlarning aniqlik darajasi hamda ularning qonunchilik hujjatlarida qat'iy belgilanishi shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning eng birinchi bosqichi hisoblanadi. Shaxsga doir ma'lumotlarning qonunchilik-

da belgilanmaganligi bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan davr uchun shaxsiy hayot daxlsizligini eng nozik va himoyalangan obyektlardan biriga aylantirib qo'yimoqda.

Fikrimizning isboti sifatida diqqatimizni bu boradagi statistik ma'lumotlarga qaratib o'tamiz. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining buzilishi sifatida shaxsga doir ma'lumotlarning o'g'irlanishi, o'zlashtirib olinishi yoki qayta ishlash holatlari yuqori darajada ekanini ta'kidlash zarur, "Chilling privacy statistic" ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyo internet foydalanuvchilarining 79 foizi o'z shaxsiga doir ma'lumotlari ustidan nazoratni butunlay yo'qotgan [34].

2018-yil 25-mayda Yevropada shaxsga doir ma'lumotlarni himoyalash tizimi ishga tushirilgandan buyon mazkur qonun bo'yicha ko'plab shaxslar javobgarlikka tortib kelinmoqda. 2021-yil yanvar holatiga ko'ra, shaxsiy hayot daxlsizligini buzish bilan bog'liq, shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlar bo'yicha qonunchilik hujjatlarini buzish statistikasida Germaniya va Italiya fuqarolari eng ko'p jarimaga tortilgan fuqarolar sifatida qayd etiladi [35].

Chunki Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat kodeksiga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli shaxsiy, kasbiy yoki rasmiy sirlarni oshkor etish javobgarlikni keltirib chiqaradi [36].

Yaponiyada ham bu masala bo'yicha javobgarlik holatlari ishlab chiqilgan bo'lib, APPI (The Act on the Protection of Personal Information) qonuniga muvofiq, irq, e'tiqod, din, jismoniy yoki ruhiy kasalliklar, tibbiy yozuvlar, hibsga olish yoki jinoiy ish yuritish kabi shaxsga doir ma'lumotlarni ochiqlash tegishli javobgarlikni keltirib chiqaradi [37].

Janubiy Koreya Respublikasining Jinoyat kodeksiga binoan, kasbiy sirlarni ochish ham shaxsiy hayot daxlsizligiga putur yetkazishi mumkin hamda jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi [38].

So'nggi tadqiqotlar va kuzatishlariga ko'ra, shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsga doir ma'lumotlarga nisbatan tahdidlarning ko'p qismi ijtimoiy tarmoqlarda uchramoqda. "Forbes" jurnalining ma'lumotlariga ko'ra, "Whatsapp" ijtimoiy tarmog'i AQSh FBI (Federal Bureau of Investigation) organiga foydalanuvchilarning ma'lumotlarini taqdim etganligi faktini [39] keltirib o'tish kifoya qiladi. Bundan tashqari, "RIA Novosti" o'z Telegram kanali orqali firibgarlik bilan shaxsiy hayot daxlsizligi buzilishidan ogohlantirib keladi. Firibgarlar Telegram botlardan onlayn mehmonxonalarini band etish xizmatlari, ko'chmas mulkni ijaraga olish va hattoki sayohatchilarni qidirish uchun soxta sahifalar yaratishda foydalanib, o'zlarining sxemalarida soxta akkauntlarni ro'yxatdan o'tkazish orqali o'z jinoiy maqsadlarini amalga oshirishmoqda [40].

Fikrimizcha, shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash masalasini muhokama qilishda, albatta, zamonaviy tendensiyalar, xususan, sun'iy intellektning ta'sirini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning tashkiliy jihatlarida sun'iy intellekt tizimlarini qo'llash borasida S.S. Gulyamov, I.R. Rustambekov, O.S. Narziyev va A.Sh. Xudoyberganovlarning qayd etishicha, "sun'iy intellekt – bu katta ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish va o'zini o'zi rivojlantirishga ixtisoslashgan, inson tomonidan yaratilgan texnik yoki mexanik ishlanma, texnologiya" [41] hisoblanadi.

Bu borada O.N. O'rinqulov va R.F. Xudoyberdiyevlarning ilmiy tadqiqotlariga nazar tashlash mumkin bo'lib, ilmiy ishda masofadan turib, biometrik identifikatsiyalash (Fase ID) uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash masalasi tadqiq etiladi [42].

Nazarimizda, tadqiqotchilarning fikrlarida ilmiy va texnologik asoslar o'rinli ifoda

etilgan bo'lib, ularni konstitutsiyaviy darajada asoslantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, shaxs ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, albatta, biometrik identifikatsiyalashga ehtiyoj seziladi. Chunki biometrik identifikatsiyalash va shu kabi masalalar shaxsiy daxlsizlikning tarkibiy elementlarini o'z ichiga oladi.

Xulosalar

Axborot makonida shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslari bo'yicha milliy hamda xorijiy olimlar, yetakchi huquqshunoslarning fikr-mulohazalari, ilmiy yondashuvlarini tahlil etish, rivojlangan mamlakatlarning konstitutsiyalarini o'rganish, bu boradagi xalqaro shartnoma va konvensiyalarni tadqiq etish quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish, muayyan darajada asoslantirilgan xulosalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Avvalambor, shaxsiy hayot daxlsizligi shaxsga doir ma'lumotlar bilan uzviy ahamiyat kasb etib, ularni qonunchilikda qat'iy belgilash, shaxsga doir ma'lumotlarning tasniflanish mezonlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Zero, bu masalada milliy qonunchiligimizda ayrim bo'shliqlar kuza-tiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi-ning "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni mavjud bo'lsa-da, uning 4-moddasi-da shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasiga juda tor ta'rif berilgan: "... muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot – shaxsga doir ma'lumotdir".

Shuningdek, shaxsiy hayot daxlsizligining asosiy obyektlaridan bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarning tasniflanish mezonlari hamda turlariga to'xtalib o'tilmagan. Nazarimizda, shaxsga doir ma'lumotlarni shaxsiy hayot daxlsizligining uzviy qismi sifatida uning ta'rifiga aniqlik kiritish hamda turlarini qat'iy belgilash lozim.

REFERENCES

1. Mirakulov M. Current problems of research in the field of state-legal sciences. *Law and Duty*, 2020, no. 5, p. 3.
2. Soliev S., Nazarov Sh. Ensuring the inviolability of private property. *Justice*, 2021, no. 2, p. 26.
3. Mominov O. Again about the presumption of innocence. *Advocate*, 2020, no. 3, p. 29.
4. Izzatullaev B. Electronic government in Uzbekistan. *Justice*, 2021, no. 8, p. 23.
5. Shermukhammedova A. Formation, trends and features of social networks in our country. *Civil Society*, 2021, no. 2, p. 25.
6. Colvin N. Whistle-Blowing as a form of digital resistance: state crimes and crimes against the state. *State Crime Journal*, 2018, vol. 7, no. 1, p. 41.
7. Nyst C. Secrets and lies: the proliferation of state surveillance capabilities and the legislative secrecy which fortifies them an activist's account. *State Crime Journal*, 2018, vol. 7, no. 1, p. 19.
8. Posen D.E. Privacy-Privacy Tradeoffs. *The University of Chicago Law Review*, 2016, vol. 83, no. 1, p. 225.
9. Bambauer D.E. Privacy versus security. *The Journal of Criminal Law and Criminology*, 2013, vol. 103, no. 3, p. 669.
10. Cohen J.E. What privacy is for. *Harvard Law Review*, 2013, vol. 126, no. 7, p. 1904.
11. Constitution of Italy. Available at: <https://www.refworld.org/docid/3ae6b59cc.html/>.
12. Constitution Act of Canada, 1982. Available at: <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/const/page-12.html#h-41/>.
13. Constitution of Spain. Available at: https://www.constituteproject.org/constitution/Spain_2011.pdf?lang=en/.
14. Constitution of Portugal. Available at: https://www.constituteproject.org/constitution/Portugal_2005.pdf/.
15. Constitution of Turkey. Available at: https://www.constituteproject.org/constitution/Turkey_2017.pdf?lang=en/.
16. Constitution of Denmark, 1953. Available at: https://www.constituteproject.org/constitution/Denmark_1953.pdf?lang=en/.
17. Constitution of Latvia https://www.constituteproject.org/constitution/Latvia_2016.pdf?lang=en/.
18. Constitution of South Korea. Available at: <http://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/ELECTRONIC/67127/98324/F2042155478/KOR67127%20English.pdf/>.
19. Constitution of Germany. Available at: https://www.constituteproject.org/constitution/German_Federal_Republic_2012.pdf/.
20. Constitution of Finland. Available at: https://www.constituteproject.org/constitution/Finland_2011.pdf?lang=en/.
21. Japan – Data Protection Overview. Available at: <https://www.dataguidance.com/notes/japan-data-protection-overview/>.
22. United Nations Organization, Universal Declaration of Human Rights, 1948. Available at: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights/>.
23. United Nations Human Rights office of the high commissioner, International Covenant on Civil and Political Rights, 1966. Available at: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights/>.
24. United Nations Human Rights office of the high commissioner, Convention on the Rights of the Child, 1989. Available at: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child/>.
25. United Nations Human Rights office of the high commissioner, International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families, 1990. Available at: <https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/ProfessionalInterest/cmw.pdf/>.

26. United Nations Conference on Trade and Development. UNCTAD. Available at: <https://unctad.org/page/data-protection-and-privacy-legislation-worldwide/>.
27. Council of Europe, Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms. Available at: <https://rm.coe.int/1680a2353d/>.
28. Organization of American states, American convention on human rights Available at: http://www.oas.org/dil/treaties_B-32_American_Convention_on_Human_Rights.htm/.
29. General Data Protection Regulation, GDPR, 2018. Available at: <https://gdpr.eu/what-is-gdpr/#:~:text=The%20General%20Data%20Protection%20Regulation,to%20people%20in%20the%20EU/>.
30. Areheart A.B., Roberts J.L. GINA, Big Data, and the future of employee privacy. *The Yale Law Journal*, 2019, pp. 710–783.
31. Efremova M.A., Agapov P.V. Crimes against information security: international legal aspects of fighting and experience of some states. *Journal of Internet Banking and Commerce*, 2016, April, vol. 21, no. S3.
32. Zhuk Ye.I. Kontseptual'nyye osnovy informatsionnoy bezopasnosti. *Machine Building and Computer Technology*, 2010, no. 04, p. 35.
33. Sierzputowski B. The data embassy under public international. *British of International and Comparative Law*, 2019, pp. 225–242.
34. Vuleta B. Legal jobs. Available at: <https://legaljobs.io/blog/privacy-statistics/>.
35. Statista. Available at: <https://www.statista.com/statistics/1203641/value-of-gdpr-fines-europe/>.
36. Criminal code of Germany Available at: https://www.GESetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html#p1892/.
37. Japan – Data Protection Overview Available at: <https://www.dataguidance.com/notes/japan-data-protection-overview/>.
38. Criminal Code of the Republic of Korea, 1953 // www.refworld.org/docid/3f49e3ed4.html
39. Forbes, 2017, January 22. Available at: <https://www.forbes.com/sites/thomasbrewster/2017/01/22/whatsapp-facebook-backdoor-government-data-request/?sh=1bf2b4561030/>.
40. RIA Novosti. Available at: <https://ria.ru/20210408/moshennichestvo-1727298977.html/>.
41. Gulyamov S.S., Rustambekov I.R., Narziev O.S., Khudoyberganov A.Sh. Proekt kontseptsii Respubliki Uzbekistan v oblasti razvitiya iskusstvennogo intellekta na 2021–2030 gody [Draft concept of the Republic of Uzbekistan in the field of development of artificial intelligence for 2021-2030]. *Jurisprudence*, TSUL, 2021, no. 1, p. 109.
42. Orinkulov O.N., Khudoyberdiev R.F. Issues of introduction of artificial intelligence technologies in Uzbekistan. *Bulletin of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*, MIA Academy, 2021, no. 1, p. 164.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.
TDYU tipografiyasida chop etildi.